

AKADEMIK YOZUV MASHG'ULOTLARIDA YUMSHOQ KO'NIKMALAR

Karaxodjayeva Maxpuza Xamidullaevna,
TATU "O'zbek va rus tillari" kafedrası dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik yozuv jarayoni ko'plab bilim va tajriba talab qiladigan murakkab faoliyat ekanligi bayon etilmoqda. Ushbu faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida nafaqat texnik va intellektual ko'nikmalar, balki shaxsiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllangan yumshoq ko'nikmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki akademik yozuvda faqat ilmiy axborotni o'rganib, uni aniq va to'g'ri ifodalash emas, balki muallifning hayotga, jamiyatga va atrof-muhitga munosabati ham o'z aksini topadi. Akademik yozuv mashg'ulotlari talabalardan keng qarash, tanqidiy tafakkur, yondashuvlarning xilma-xilligiga ochiqlik va muomala madaniyatini talab qiladi. Bu esa aynan yumshoq ko'nikmalarning shakllanishi va rivojlanishi bilan uzviy bog'liq.

Kalit so'zlar: akademik yozuv, mashg'ulotlar, ko'nikmalar, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, muloqot, madaniyat.

Akademik yozuv mashg'ulotlarida yumshoq ko'nikmalar(inglizcha: *soft skills*)ni shakllantirish va rivojlantirish - nafaqat talabalarni malakasini yozuvchi sifatida tayyorlashda, balki ularni har tomonlama fikrlovchi, samarali muloqot qiluvchi va jamoat ishlariga qodir mutaxassis sifatida shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

O'quv muassasalarida akademik yozuv mashg'ulotlari doimo diqqat markazida bo'lib, u nafaqat mustaqil fikrlash, dalillarni tahlil qilish va tadqiqot olib borish, balki fikrlarni ravon, mantiqan aniq va asosli tarzda ifodalashni ham o'rgatadi. Bunda muhim jihatlardan biri – fikrni tuzishda va uni talaba uchun yetkazishda til imkoniyatlaridan samarali foydalanish, matnni murakkablashtirmasdan lo'nda va sodda ifoda etishdir. Yozuv jarayonida har bir so'z, ibora va jumla o'z o'rnida ishlatiladi, talaba muammoni to'g'ri anglab olish uchun aniq va oshkora ifodalar keltiriladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun esa aniq reja tuzish, ma'lumotlarni saralash va asosli ravishda joylashtirish kabi ko'nikmalar dastlabki o'rinda turadi. Bundan tashqari, akademik yozuv mashg'ulotlarida o'zini-o'zi tahlil qilish, psixologik iroda va intizom ham muhim ahamiyatga ega. Talaba sinchkov, sergak va jiddiy bo'lishi lozim, matnga qayta-qayta murojaat qilishi, uni tahrirlashi va zarurat tug'ilganda yana o'zgartirishga ham tayyor turishi kerak. Bu jarayonda talabalar mas'uliyat, muloqot, xatolarga bardoshlilik, vaqtni to'g'ri boshqarish, o'zini baholash hamda o'zini rivojlantirish kabi ko'nikmalarni ham o'zlashtiradi. Chunki biron bir ilmiy ishni yoki maqolani yozish jarayonida ko'plab to'siqlarga duch kelinadi, bajargan ishning aksariyati qayta ko'rib chiqiladi va mukammallashadi. Bu esa

yozuvchining o'z ustida ishlashiga, tanqidiy mulohaza yuritishiga va o'z ko'nikmalarini rivojlantirishiga olib keladi.[1]

Boshqa tomondan, akademik yozuvda o'z-o'zini ifoda etish ko'nikmasi ham juda muhim. Matnning har bir qismi muallifning ilmiy yoki kasbiy mavqei, tarbiyasi hamda jamiyatdagi o'rnini ko'rsatadi. O'qituvchi munosabat bildirishda, bahs yuritishda yoki yangicha qarashlarni ilgari surishda savodxon, madaniyatli va ochiq fikrli bo'lishi lozim. Bu esa akademik sohada yumshoq ko'nikmalarning ahamiyatini yanada oshiradi. O'qituvchi nuqtayi nazarini xolislik bilan asoslay olishi, fakt va fikrlarni farqlay olishi, dalillarga tayanib baho bera olishi bilimdon va yetuk muallifning asosiy belgilaridan sanaladi.

Akademik yozuv mashg'ulotlarida kommunikativ ko'nikmalar ham alohida o'rin egallaydi. Chunki ilmiy matnga oid fikr va g'oyalarni jamoadoshlar, hamkasblar va mas'ullar bilan muhokama qilish, faol tinglovchi bo'lish, mulohazalarni inobatga olish, ijobiy hamkorlikda ishlash kabilar yaxshi natija beradi. Bu jarayonda talabalar hamkorlik, hurmat, murosaga kelish, guruhlarda samarali ishlash va liderlik sifatlarini shakllantiradi. Fikr almashish, bir-birining qarashlarini qadrlash, o'z g'oyasini chuqur va ravon yetkazib berish – bularning barchasi zamonaviy akademik jarayonning ajralmas qismidir. Akademik matn yaratishda ijtimoiy va madaniy kontekstni to'g'ri anglash, turli mintaqa va soha vakillari fikrini inobatga olish ham muhim. Matnlar ko'plab talabalar, tadqiqotchilar va keng jamoatchilikka mo'ljallangan bo'lganligi sababli, ular umumxalq qadriyatlariga mos, etika va axloqiy normalarga rioya qilgan holda yoziladi. Bu esa o'qituvchi uchun axloqiy va fuqarolik mas'uliyatini yanada oshiradi. Akademik yozuvning so'z boyligi, uslubi va mazmuni o'z o'rnida bo'lishi uchun ijodkor har doim o'z ustida ishlashi, yangilikka intilishi va o'z qobiliyatini oshirib borishi zarur.[2]

Hozirgi sharoitda, akademik yozuvda raqamli texnologiyalar va zamonaviy vositalardan foydalanish ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ish jarayonini elektron formatda tashkil qilish, zamonaviy dasturlar va onlayn platformalarda ishlash o'qituvchidan o'zlashtirish, sinab ko'rish va ilg'or tajribalarni o'rganish ko'nikmalarini talab etadi. Bu esa nafaqat o'z ishini osonlashtiradi, balki ilmiy hamjamiyat bilan munosabatlarni mustahkamlaydi va axborot almashuvi sifatini oshiradi.

Yangi texnologiyalar yordami bilan ma'lumot yig'ish, tahrirlash, tahlil qilish va natijalar chiqarish uchun bozor va akademik ehtiyojlar doimiy o'zgarib borar ekan, yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati yanada muhim bo'lib boradi. Shuningdek, akademik yozuv mashg'ulotlarida tanqidiy fikrlash (critical thinking) - bu ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash va asosiy xulosalarni chiqarish qobiliyati alohida o'rin tutadi. Bunda talabalar manbalarni solishtiradi, baholaydi, tahlil qiladi. Mavzuni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqib, mustaqil fikr bildiradi. Dalillarga asoslangan xulosa

chiqaradi. O'qituvchi akademik yozuv mashg'ulotlarida talabalarda yana muloqot qilish ko'nikmalarini (communication skills) to'g'ri, aniq va tushunarli yozma va og'zaki fikr bildirish qobiliyatini shakllantiradi. Bu ko'nikma talabalarni fikrini mantiqiy va izchil ifoda qilishga, talabanini e'tiborini saqlab qolish uchun aniq tuzilgan matnlar yozishga, jamoaviy yozuv loyihalarini yaratishga, yozilgan ishlar bo'yicha guruh bilan muhokama qilishga(peer-review) o'rgatadi. Mashg'ulot davomida rivojlanadigan asosiy yumshoq ko'nikmalardan yana biri muammolarni echish ko'nikmasi(problem-solving)hisoblanadi. Bu ko'nikma orqali talaba yuzaga kelgan vaziyat yokisavollarga ijodiy va mantiqiy yechim topishga o'rganadi. Talaba murakkab mavzularni tahlil qilish va ularning sabab-oqibatini aniqlashga, alternativ yechimlarni taklif qilishga, ilmiy-izlanish yo'nalishida savolga asoslangan esse topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini egallaydi. Mashg'ulot davomida talaba moslashuvchanlik va o'zgarishlarga tayyorlik (adaptability) holatlarini egallab boradi. U bu jarayonda yangi vaziyatlarga tezda moslashadi, turli mavzular va uslublarda ishlay oladi. Bu ko'nikma talabani turli janrlarda yozishga(annotatsiya, referat, maqola, taqriz), turli mavzularni o'rganish va ularga mos yozuv uslubini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tashabbus ko'rsatish, innovatsion yondashuvlarni ilgari surish, mavzuga boshqa burchaklardan nazar tashlash – bularning barchasi yumshoq ko'nikmalarning ifodasidir. Akademik yozuvdan kutiladigan natija ham aynan shu: tashqi yoki ichki bosimlarga qaramasdan, masalani chuqur tahlil qilgan holda, asosli va obyektiv yechimlar taklif qilish.[3]

Idrok va estetik ongni rivojlantirish, talabaga o'z fikrlarini ifodalashda ruhiy erkinlik yaratish ham akademik yozuv mashg'ulotlarining yana bir ustunligidir. O'rganilayotgan mavzuni keng va chuqur anglash, muammo va yechimlarini to'liq tasavvur qilish, fikrlarni izchil va ravon tarzda bayon qilish, bu yo'lda tahlil, sintez, umumlashtirish va natijalash kabi fikr faoliyati uslublaridan unumli foydalanish akademik shaxs kamolotining muhim bosqichi hisoblanadi. Yozuv orqali talabalar o'zlarining bilim darajasi va didini oshiradi, mustaqil o'rganish, axborotni saralash, tanqidiy qarashlarni shakllantirish qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Akademik yozuv jarayonida irodaviy kuch, qat'iyat, bardoshli bo'lish va o'z mehnatiga baho berish ham muhim ko'nikmalar sirasiga kiradi. Har bir o'qituvchi o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yadi, mustahkam reja asosida ishlaydi, me'yoriy hujjat va etik qoidalarga amal qiladi, shu orqali ilmiy adabiyot sohasiga o'z hissasini qo'shadi. Bunda yuqori savodxonlik, ijtimoiy ong, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy mulohaza yuritish va shaxsiy mas'uliyat ko'nikmalarining muhimligi yaqqol ko'rinadi.

Akademik yozuv mashg'ulotlari orqali nafaqat ilmiy, balki fuqarolik, axloqiy, estetik va ijtimoiy fazilatlar rivojlanadi. To'g'ri tashkil etilgan akademik yozuv mashg'ulotlari talabalar uchun nafaqat sohada bilim olish, balki jamiyat hayotining

barcha sohalarida faol, yetuk va komil shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Yangi zamonaviy metodlar o'zlashtirilayotgan bir vaqtda, insoniy fazilat, mehnatsevarlik, o'z fikrini ravshan ifoda etish, tashkilotchilik, kasbga mehr, hayotga real qarash va zamonaviy dunyoqarashda faol bo'lish kabi yumshoq ko'nikmalar har bir inson uchun muhim omilga aylanmoqda.[4]

Akademik yozuv mashg'ulotlarining yana bir muhim xususiyati, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir ishtirokchida yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatining yuqoriligida namoyon bo'ladi. Har kimning dunyoqarashi, shaxsiy qiziqishlari, muloqot uslubi turlicha bo'lishi mumkin. Akademik yozuv ayni shu bir-biridan farqli shaxsiy fazilatlarni uyg'unlashtirish, chuqur tahlil qilish va ilmiy ko'rinishda taqdim etish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Bu yo'lda talabalar mustaqil fikrlash, axborotlarni izchil tahlil qilish, ma'lumotlarni yaxlit va ixcham qilib yetkazish, qayta tahrir qilish, o'z ishini baholash va takomillashtirish orqali ko'plab yumshoq ko'nikmalarni hosil qiladi. Ilmiy va akademik yozuv sohasida yuqori natijalarga erishish uchun, birinchi navbatda, o'zida mustahkam hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, so'z va harakatda uyg'unlik, axloqiy yetuklik va professional xulq-atvor bo'lishi zarur. Chunki har qanday ilmiy matn yoki maqola o'z muallifining dunyoqarashi, ma'naviyati, aqidasi va ijtimoiy mavqeini ifodalaydi.

Akademik yozuv mashg'ulotlari yoshlarni chuqur, izchil va barqaror fikrlashga, o'z bilim va tajribasini boshqalar bilan bemalol bo'lishish madaniyatiga, zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashgan holda faoliyat yuritishga undaydi. Akademik yozuv mashg'ulotlarining natijasi sifatida nafaqat bilim va savodxonlik, balki do'stlik, hamkorlik, jamoaning bir bo'lagi bo'lish, yangi g'oyalarni ilgari surish va hayotga tatbiq qilish, o'z kasbini va jamiyatini hurmat qilish kabi ijobiy yumshoq ko'nikmalar ham shakllanadi. Bu esa zamonaviy akademik muhit va ilmiy jamoaning poydevorini mustahkamlaydi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shadi.[5]

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, akademik yozuv - bu faqatgina ilmiy matn yozish emas. Bu - talabalarda XXI asrning eng muhim yumshoq ko'nikmalarini shakllantirish uchun samarali vosita hamdir. Shuning uchun, har bir akademik yozuv mashg'uloti talabaning shaxsiy va professional rivojiga xizmat qiladigan tarzda tashkil etilishi lozim.

Akademik yozuv mashg'ulotlari yumshoq ko'nikmalarning shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu ko'nikmalar har bir ishtirokchining shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi: shaxsiy mas'uliyat, kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, muomala madaniyati hamda tashabbuskorlikning shakllanishiga zamin yaratadi. Akademik yozuv orqali nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-madaniy rivojlanish, zamonaviy tafakkur va ijodiy yondashuv ham takomillashadi. Shu bois, ishlab chiqilayotgan har bir ilmiy matn, tayyorlanayotgan har bir maqola yoki

dissertatsiya ortida insoniylik, madaniyat, faol hayotiy pozitsiya va baraka ulashadigan yumshoq ko'nikmalar mujassam bo'ladi. Bu ko'nikmalar zamonaviy akademik muhitni yangilash, milliy va global taraqqiyotda faol ishtirok etishga xizmat qiladi va shaxsiy taraqqiyot kalitiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova, S. (2018). Til o'rganishda kommunikativ va yumshoq ko'nikmalarni takomillashtirish yo'llari. Oliy Ta'lim, 4(3), 55-60.
2. Nurmatova, D. (2019). Zamonaviy akademik yozuv madaniyati va uni rivojlantirish omillari. Filologiya Masalalari, 2(2), 141-146.
3. Rasulova, M. (2020). O'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda yumshoq kompetensiyalarning o'rni. Ta'lim Va Innovatsiya, 1(9), 81-86.
4. Tursunov, A. (2021). Oliy ta'limda talabalarda yozma nutqni rivojlantirishning zamonaviy tamoyillari. O'zbek Tili va Adabiyoti, 6(1), 52-59.
5. Xudoyberdiyeva, Z. (2017). O'zbek tilshunosligida akademik yozuv madaniyatining rivojlanish tendensiyalari. Til Va Adabiyot Ta'limi, 3(1), 67-72.